

## MUMTOZ SHE'RIYATDA TAXMIS XUSUSIYATLARI

*Ruziyeva Dilnoza Furqatovna,*

*Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada taxmis va uning turlari haqida nazariy qarashlar, shoirlar ijodidan namunalar, taxmisning mumtoz o'zbek va Sharq she'riyatidagi o'rni, uning poetik tabiati, shakliy va mazmuniy xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

*Kalit so'zlar:* Taxmis, muxammas, ta'bi xud muxammas, tazmin muxammas, tazmin

## ОСОБЕННОСТИ ТАХМИСА В КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ

*Рузиева Дильноза Фуркатовна,*

*докторант Самаркандского государственного  
педагогического института*

*Аннотация.* В статье анализируются теоретические взгляды на тахмис и его виды, примеры из творчества поэтов, место тахмиса в классической узбекской и восточной поэзии, его поэтическая природа, формальные и содержательные особенности на основе научных источников.

*Ключевые слова:* Тахмис, мухаммас, таби худ мухаммас, тазмин мухаммас,

## FEATURES OF TAXMIS IN CLASSICAL POETRY

*Ruziyeva Dilnoza Furqatovna,*

*Researcher of the Samarkand State Pedagogical Institute*

**Annotation.** *This article analyzes theoretical views on takhmis and its types, examples from the work of poets, the place of takhmis*

**Keywords:** *Takhmis, muhammas, tabi khud muhammas, tazmin muhammas, tazmin*

Mumtoz adabiyotimizda turli lirik janrlar va badiiy san'atlar uchraydi. uchraydi. Badiiy san'atlar va janrlar shu darajada bog'liqlik, biri ikkinchisini to'ldiradi va takomili uchun xizmat qiladi. Musammatlar takomilida esa taxmisning o'rni beqiyosdir. Taxmis — mavjud g'azal baytlariga qo'shimcha misralar qo'shish orqali yangi poetik matn yaratish usulidir. Bu jarayonda asl matn saqlanadi, ammo yangi mazmuniy qatlam yuzaga keladi. Muxammas so'zi arabcha "beshlik" ma'nosini bildirib, har bandi besh misradan iborat she'r hisoblanadi.<sup>1</sup> Muxammaslar *a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a...tarzida qofiyalanadi.*

Muxammaslar yaratilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

- 1) ta'bi xud muxammaslar(mustaqil)
- 2) taxmis(g'azalni beshlantirish asosida yaratilgan ).<sup>2</sup>

Ta'bi xud muxammasda barcha misralar shoirning o'zi tomonidan yaratiladi. Bunda ijodkor o'z fikr va mulohazalarini, tuyg'ularini erkin bayon etadi. Boshqa shoir ijodiy g'oyalariga ergashmaydi. Taxmisda esa muallif o'zga shoir ijodiga ergashgan holda(ba'zan o'z ijodiga ergashish ham kuzatiladi) undan ilhom oladi va ijodiy davom ettiradi. Bunda taxmis bog'layotgan shoir bilan mushtarak dunyoqarash, g'oyaviy hamohanglik bo'lishi zarur.

Dilmurod Quronov taxmisni intertekstual aloqa mahsuli sifatida baholab, unda ikki ijodkor o'rtasida badiiy dialog yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Y.Is'hoqov taxmisni shoirning poetik mahoratini sinovdan o'tkazuvchi shakl sifatida talqin etadi.

Shakliy xususiyatlariga ko'ra taxmis quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

- har bir bayt besh misrali bandga aylanishi
- aruz vaznining saqlanishi

<sup>1</sup> Sh.Sirojiddinov. O.Davlatov. D.Yusupova. Navoiyshunoslik. Toshkent: Tamaddun, 2018

<sup>2</sup> I.Sulaymonov. Navoiy va Qori Ho'qandiy. Alisher Navoiy ijodi va qiyosiy tahlil masalalari. Toshkent: Tamaddun, 2017

•qofiya va radif tizimining buzilmasligi

Izzat Sulton fikricha, mumtoz she'riyatda shakl va mazmun uyg'unligi ustuvor bo'lib, taxmis aynan shu uyg'unlikni ta'minlaydi.

Taxmis o'zbek adabiyotida keng rivojlangan bo'lib, ayniqsa Alisher Navoiy g'azallari asosida ko'plab taxmislar yaratilgan. Bu holat mumtoz adabiyotda ijodiy davomiylik va ustoz-shogird an'anasining muhim ko'rinishidir. Bertels Sharq she'riyatida bunday shakllarni ijodiy dialog sifatida baholaydi. O'z navbatida Alisher Navoiy ham Lutfiy ijodiga ergashib taxmislar yaratgan. Alisher Navoiy ijodidagi 10 ta taxmisdan uchtasi Lutfiy ijodi bilan bog'langan. Qolganlari esa o'z ijodiga bog'liq holda yaratilgan. Navoiyga bir qator shoirlar taxmis bog'lashgan. Jumladan, Qo'qon adabiy muhitining vakillaridan hisoblangan Amiriy va Nodira ijodida bunday namunalarni ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiyning "Badoye ul bidoya" devoniga kiritilgan 464-g'azalga Nodira ijodida taxmis bitilganligini ko'rishimiz mumkin. Devondagi g'azal quyidagicha:

*Ko'ngul jon birla bordi hamrahing, men dard ila turdum,*

*Sanga jon birla ko'nglumni, seni tengriga topshurdum.*

*Nishondur tiyra bo'lg'on axtari baxtim savodidin,*

*Tuganlarkim, firoqing o'tidin g'am shomi kuydurdum.*

*Yig'och birla boshokim, tanda qolmish uldurur marham,*

*Junundinkim, firoqing o'qlarin jismimda sindurdum.*

*Tutashti sham'dek har barmog'im hijron sharoridin,*

*Ilik marham qo'yay deb chun ko'ngul chokiga etkurdum.*

*Chu ul kofir chiqar ko'z solmag'aysiz, ey musulmonlar,*

*Ki men bechora ko'nglumni boqib turg'uncha oldurdum.*

*Qotibdur ko'zlarimki, ne yopilmoq, ne taharruk bor,*

*Qiyo boqqaymu bir deb, azm etarda baski telmurdum.*

*Yuzin ko'rgach boshimg'a tushti mushkin zulfi savdosi,*

*Fig'onkim, bir boqishda yuz balo boshimg'a kelturdum.*

*Ko'ygul tinmasqa qolmish erdi har nav' orzu birla,*

*Rizo ko'yida to qo'y dum qadam, ko'nglumni tindurdum.*

*Makon gulxan kulin qildim, Navoiy, telbadek, ya'ni*

*Junun torojidin oxir qaro tufroqqa o'lturdum.<sup>1</sup>*

Nodira ijodida esa bu g'azalga quyidagicha taxmis muxammas yaratilgan:

*So'rog'ingda biyobonlar kezib bepo-u sar yurdum,*

*Quyundek charx urub jismim g'uborin ko'kka sovurdum.*

*Sen azm aylab ketarg'a, men bo'lub bemor, qayg'urdum,*

*Ko'ngul jon birla bo'ldi hamrahing, men dard ila turdum,*

*Senga jon birla ko'nglumni, seni tengriga topshurdum.*

Lirik qahramon ma'shuqasini izlab, biyobonlarda "bepo-u sar" kezadi. Uni qidirish asnosida sabri toshib, quyundek charx uradi va jism g'uborini ko'kka sovuradi. Yorning ketishga azm qilganidan bemor bo'lib qayg'uradi. Ko'ngli jon bilan hamroh bo'ladi va oshiqqa darddan bo'lak narsa qolmaydi. Oshiq ko'ngli va jonini ma'shuqaga, ma'shuqani esa Tengriga topshiradi. Chunki u ma'shuqaga shu qadar oshiqki. Uni Tengridan o'zgaga omonat etolmaydi. Nodira shu qadar chiroyli taxmis boglaganki, misralarni o'qir ekansiz, Navoiy g'azalida bayon etilgan fikrlarning sabab va oqibatini, isbotini topgandek bo'lasiz.

*Vidoyingni qilurda kuydi jonim xayrbodidin,*

*Falak sahfi qorardi dudi ohimning midodidin,*

*Jahon zulmat saroyi dudi ohim imtidodidin,*

*Nishondur tiyra bo'lg'on axtari baxtim savodidin,*

*Tuganlarkim, firoqing o'tidin g'am shomi kuydurdum.*

Yorini Tengriga omonat topshirgan oshiqning keying holati juda ta'sirchan ochib berilgan. Oshiq vidolashar ekan, xayrlashuvdan joni kuyadi. Uning chekkan ohlaridan falak sahifasi qorayadi. Butun olam zulmat saroyiga aylanadi. Chunki baxt yulduzi (axtari baxt) kuydi, firoq o'tidan g'am shomi qoraydi. Bunday tasvirlar o'quvchi ko'z o'ngoda husni ta'lil, mubolag'a badiiy san'atlari vositasida mahorat bilan ochib beriladi.

*Qoshing yosi tamannosidadur payvasta qaddim xam,*

*Yurak zahmig'a marham istab etmasman taraddud ham,*

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Badoyi' ul-bidoya www.ziyouz.com kutubxonasi .257-bet

*Ko'ngul novaklaringni zaxmidin rohat topar har dam,  
Yig'och birla boshoq kim tanda qoldi ul erur marham,  
Junundin kim firoqing o'qlarin jismimda sindurdum.*

Lirik qahramon yor qoshlarining tamannosi, ya'ni orzusida qaddi xam bo'ladi. Ammo yurak zahmig'a Malham istab taraddudlanmaydi, chunki yorning bir nigoh tashlashi(novaklari)dan ko'ngil zaxmlari(yaralari)orom topadi. Bu shu qadarki, junundin(telbalikdan)firoq o'qlarini jismida sindirar holatda yuz beradi.

*Giribon chok erurman subhi vasling intizoridin,  
Qarong'u bo'ldi shomim dudi ohimning g'uboridin,  
Shararlig' shu'lalar bosh chekti ko'ksun xor-xoridin,  
Tutashti sham'dek har barmog'im hijron sharoridin,  
Ilik marham qo'yay deb chun bag'ir chokiga etkurdum.*

Lirik qahramon vasl istab yaqo (giribon)chok etadi. Ohlarining g'uboridanshomlari qorayib ketadi. Ko'ksining alamlaridan uchqun ko'tariladi va barmoqlariga shamdek o't tutashadi va bag'irdan Malham izlanadi.

*Meni lol etti guftori labi xomushi go'yosi,  
Ushatti qandu shakkar qimmatin la'li shakarxosi,  
Na dilkash husn erur ko'rgan sari ortar tamannosi,  
Yuzing ko'rgach boshimga tushti mushkin zulf savdosi,  
Fig'onkim bir boqishda yuz bal boshimga kelturdum.*

Yorning lablaridan chiqayotgan so'zlar shu qadar shirinki, qand bozorlarini sindiradi, qiymatini pasaytiradi. Yorning yuzlari shunchalik chiroyliki, uni ko'rgan oshiq sochlarining savdosini istab qoladi, ammo boshga yuz balolarni keltiradi.

*Seni topmoq base mushkil ko'rundi justiju birla,  
Firoqing dardiga taskin tilarman guftigu birla,  
Gahi paymona birla shug'l etib, gohi sabr birla,  
Ko'ngul tinmasqa qolmish erdi har nav orzu birla,  
Rizo ko'yig'a to qo'yidum qadam ko'nglumni tindurdum.*

Yor ma'shuqasini xabarlashib toppish mushkul ekanligini anglaydi. U bilan suhbatlashib , firoq dardiga darmon , taskin topmpqchi bo'ladi. Buning eng ma'qul yo'li esa rizolik yo'liga qadam qo'yishdir.

*Zarar qilmas muhabbat ahliga ag'yor ni ta'ni,  
Erur badxohlarning guftiguyi barcha bema'ni  
Bu kun, ey Komila, boshdin kuyub toji murassa'ni,  
Makon gulxan kulin qildi Navoiy telbadek ya'ni,  
Junun torojidin oxir qaro tufroqqa o'lturdum.*

Ko'zga tashlanadiki, Nodira Navoiyning g'azalidan ilhomlangan holda ijodiy fikrlarni, g'oyalarni ohoriy tarzda davom ettiradi. Nodira o'zining misralari bilan Navoiy g'azalining mazmun-mohiyatiga va ruhiyatiga kirishga ,unga mos bo'ishga harakat qiladi. Muhim jihati shuki, g'azal 9 baytdan tashkil topgan. Nodira har bir baytga taxmis bog'laydi, ya'ni dastlabki uch misrani o'zi yaratadi va 4-5 misralarni Navoiy g'azalidan keltiradi. Ammo g'azalning 6-bayti hisoblangan quyidagi baytiga tazmin bog'lanmagan:

*Qotibdur ko'zlarimki, ne yopilmoq, ne taharruk bor,  
Qiyo boqqaymu bir deb, azm etarda baski telmurdum.*

Buning sababi Nodira oldingi bandda ko'z borasidagi qarashlarini juda chiroyli ifoda etgan, shu boisdan qayta yoritishga ehtiyoj sezilmaydi.

Xulosa shuki taxmis yaratish ijodkordan katta mahurat talab etadi. Shu bois ijodkorlar ijodining eng etuk davrlarida bu janrga qo'l urishga jur'at etganlar. Taxmisning nodir namunalari mumtoz adabiyotimizda ko'plab uchraydi va bu holat ijodiy hamkorlik bilan birga, ayni damda raqobatlashishni ham ifodalay oladi. Bu holat esa adabiy izdoshlik va novatorlikka zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2017.
2. Sulaymonov I.I., Navoiy va Qori Ho'qandiy. Alisher Navoiy ijodi va qiyosiy tahlil masalalari. – T.: Tamaddun., 2018.
3. Navoiy A. Badoye ul bidoya. // [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 257